

## Oila huquqi va oila munosabatlari

Andijon davlat universiteti

MG'MAHT yo'nalishi 3-bosqich talabasi

**Mirzarayimova Zebiniso Mansurbek qizi**

**Annotatsiya:** Maqolada oila huquqi huquq sohasining mustaqil sohasi hisoblanib, nikoh, qon-qarindoshlik, bolalarning nasl-nasabini belgilash, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish shakllaridan kelib chiqadigan munosabatlarni huquqiy tartibga solishi hamda jamiyatimizda oilalarni mustahkamlashga doir chora-tadbirlar aks etgan.

**Kalit so'zlar:** Oila, Konstitutsiya, Oila kodeksi, erkak, ayol, er-xotin, bola, vasiylik, oila huquqi, nikoh.

Oila huquqi ham inson huquqlaridan biri bo'lib, u jamiyatda oilaviy munosabatlarni, er-xotin, bola huquqlarini tartibga soladi. Shuning uchun har bir fuqaro oila huquqi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lmog'i lozimdir.

Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir. Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar axloqiy va huquqiy yo'llar bilan tartibga solinadi.

Oila huquqi tushunchasi – er-xotinlar, qarindoshlar, ota-onalar (farzandlikka oluvchilar) va bolalar o'rtasidagi shaxsiy nomulkiy va ular bilan bog'liq mulkiy tusdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqning mustaqil tarmog'idir.<sup>11</sup>

Oila munosabatlarini tartibga soluvchi qonun hujjatlari, normativ me'yorlar majmui oila huquqi manbalari hisoblanadi. Mamlakatimizda oila munosabatlarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Fuqarolik prosessual kodeksi, Fuqarolik holatlarini qayd etish tartibi to'g'risidagi Yo'riqnomasi, Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari, O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to'g'risidagi Nizom, Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va tarbiyaga olish (patronat) to'g'risidagi Nizom, Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish haqidagi qaror, Oliy sud Plenumining oila masalalariga qaratilgan qarorlari tartibga soladi. Oila huquqining manbalari yuridik kuchiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari va qonunosti hujjatlariga bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi oilaviy huquqiy munosabatlarni tartibga solishga yo'naltirilgan maxsus yuridik manba bo'lib, uning vazifalari:

- Xalqaro huquqiy qoidalarga asoslanib, tegishli milliy qonunlar yordamida oilani mustahkamlash, bolalar manfaatini himoya qilish;
- Umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida oilalarning barqarorligini ta'minlash tizimini barpo etish;

<sup>11</sup> H.H.Mahmudov.,R.T.Berdiyarov.,G.M.Isroilova.Huquqshunoslik. "Vorisi – nashriyot".Toshkent-2010.94-b.

- Mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi g'oyat murakkab davrida oilaga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish;
- Xonadonning sezfayzligi, oila hayotining ravnaqi, ma'naviyatining yuksalishi, turmushining farovonligi asosan ayollarga bog'liqdir. Shuning uchun ham ayollarning oiladagi mavqeiga, huquqiy holatiga alohida e'tibor berish kerak. Bunda har bir oilaning o'ziga xos xususiyatini, millatimizning o'ziga xos jihatlarni e'tiborga olish;
- Sog'lom avlod haqida bola tug'ilmasdan oldin g'amxo'rlik qilish;
- Oila qonunlarida belgilangan nikohga o'tish tartibi va shartlarini, oilada er-xotin, ota-onalar bilan bolalar, oilaning boshqa a'zolari o'rtasidagi shaxsiy va mulkiy munosabatlarni, farzandlikka olish, vasiylik va homiylik, Bolani tarbiyaga olish tufayli kelib chiqadigan huquqiy munosabatlarni tartibga solishga e'tiborni qaratish kabilardir.<sup>12</sup>

Oila hayotning abadiyligini ifodalaydi. Avlodlar ota-onalari, bobo-buvilari boshlagan ishlarni davom ettiradilar. Oilada yangi farzand dunyoga kelar ekan, insoniyat zanjiri davom etib ketaveradi. Avlodlar almashaveradi, yangidan yangi g'oyalar, ixtirolar qilinaveradi.

Oila millatning, yurtning o'zligini, milliyligini saqlab qolishga ko'maklashadi. Vatanga, ota-onaga mehr-muhabbatni yuksaltiradi.

Yoshlarga oila huquqini o'rgatishdan asosiy maqsad ularni kelajakka, turmushga tayyorlash, o'z kasblariga olgan bilimni joriy etish ko'nikmasini hosil qilish. Ularda oila qonunchiligi haqida chuqur bilimni shakllantirish, qonunning tamoyillarini o'rgatish va oilaviy-huquqiy munosabatlar doirasidan kelib chiqadigan muammolarni yechishda olingan bilim bilan hal qila olishni o'rgatishdan iborat.<sup>13</sup>

Oila oila bo'lishi uchun erkak va ayolning o'z ixtiyorlari bilan tuzilgan nikohi bo'lishi kerak. Nikoh oilani vujudga kelishi uchun birdan-bir asosi hisoblanadi. Nikoh nafaqat axloq normalari bilan balki, qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Nikoh – ikki jinsdagi shaxslarning oilaviy munosabatlarda birgalikda ishtirok etish uchun o'zaro ahdlashuvidir. Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organida tuziladi. Nikoh FHDYO organiga ariza berilgandan so'ng bir oy muddat o'tgach tuzilishi kerak. Nikoh ikki jinsdagi shaxslarning o'zaro roziligi bilan tuziladi. Nikoh yoshi erkaklar uchun 18 yosh, ayollar uchun 17 yosh deb belgilangan. O'zbekiston Respublikasida fuqarolar faqat bitta nikohda turishi mumkin.<sup>14</sup>

<sup>12</sup> H.H.Mahmudov.,R.T.Berdiyarov.,G.M.Isroilova.Huquqshunoslik. "Voris – nashriyot".Toshkent-2010.96-b.

<sup>13</sup> Xudoyor Mamatov.Huquqshunoslik.Toshkent "Adolat" 2016.190-b.

<sup>14</sup> A.Azizxo'jaev.,O.Husanov.,X.Azizov.Konstitutsiyaviy huquq (izohli lug'at). "Akademiya" Toshkent-2001.69-b.

Nikoh nikoh tuzuvchilarga mas'uliyat yuklaydi. Chunki oilada erning ham, ayolning ham o'z majburiyatlari bor va ular bu majburiyatlarni bajarishga mas'uldirlar. Nikoh tufayli ota-ona o'zidan zurriyot qoldiradi va naslini davom ettiradilar.

Nikohga shariat ilmida o'ziga xos yondashuv mavjud. Shariatda nikoh umrbodga tuziladi. Shariat muddatli shartlarga yo'l qo'ymaydi.

Shariat bo'yicha nikohdan o'tuvchilar quyidagi shartlarga rioya qilishlari kerak:

Birinchidan, nikohdan o'tuvchilarning o'zaro roziligiga;

Ikkinchidan, nikoh yoshiga to'lishlariga;

Uchinchidan, nikohni guvohlar ishtirokida tuzishlariga;

To'rtinchidan, kelin uchun qalin va mahr to'lashiga;

Beshinchidan, diniy e'tiqod birligiga;

Oltinchidan, nikohdan o'tadiganlar yaqin qon-qarindosh bo'lmasligiga;

Yettinchidan, tabaqa bo'yicha tengligiga;

Sakkizinchidan, nikohdan o'tuvchilarning ruhiy jihatdan sog'lom bo'lishlariga.

Nikohdan o'tayotgan erkak va ayol har jihatdan, jismonan ham ma'nan sog'lom bo'lishlari kerak. O'zbekiston Respublikasida oila davlat himoyasidadir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.H.H.Mahmudov.,R.T.Berdiyarov.,G.M.Isroilova.Huquqshunoslik. “Vorisiyot” nashriyot”.Toshkent-2010.
- 2.Xudoyor Mamatov.Huquqshunoslik.Toshkent “Adolat” 2016.
- 3.A.Azizxo'jaev.,O.Husanov.,X.Azizov.Konstitutsiyaviy huquq (izohli lug'at). “Akademiya” Toshkent-2001